



## Talabada ishlamayotgan xetira



*Kechagi bitiruvchimiz  
bugun qayerda?*



GAZETANING BUGUNGI QAHRAMONLARI **NAZAROV ILHOMJON ZAFAR O'G'LI**  
HAMDA **BAHROMOVA MALIKA BAHROM QIZI**.

4-5- SAHIFALAR



[tdtuof.uz](http://tdtuof.uz)



@TDTUOFUZ



+998 93 544 96 94

# Talabada ishlamayotgan xotira

*Asli Jizzaxning Baxmalsoyidan bo'lgan Olimjon Abdurasulov bilan suhbatimiz davomida har joyda o'z o'rni va so'ziga ega insonligi, harakatchanligi va mehnasevarligi bilan bugun o'zi istagan marralarni zabt etayotganiga yana bir karra amin bo'ldik. Gazetamizning bu sonida ustozning nafaqat psixolog, balki hayotiy tajribaga ega inson sifatida hamda oliy ta'lim talabalari psixologiyasi xususidagi fikrlarini bermoqdamiz.*



## O'sish nuqtasida...

1983-yil O'zbekiston milliy universitetining falsafa fakultetiga o'qishga kirdim. Qizil diplomga bitirib, Samarqanddagi SamDUda kunduzi aspiranturada o'qishni davom ettirdim, ham ishladim. 3yillik aspiranturani ichida ilmiy ish himoyasini qildim. 8 yil davomida SamDUda ishlab, Samarqand oliy harbiy bilim yurtiga dotsent bo'lib ishga kirdim. U yerda leytenant unvonini olib, kitoblarimni chop ettirdim. So'ngra O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasining Kasbiy psixologik tanlash markaziga mutaxassis psixolog sifatida ishga chaqirishdi. Vazirlikda ma'naviyat-ma'rifat bo'limining tarbiyaviy ishlar boshqarmasida katta ofiser sifatida ishimni davom ettirib, u yerda 15 yil davomida huquqbuzarlikning oldini olish tahliliy bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat olib bordim. U yerda polkovnik unvonini olib, pensiyaga chiqdim.

Shundan so'ng Toshkent temir yo'l muhandislar institutida ishladim. Sportning qo'l jangi bo'yicha Yangiyo'dagi iqtisod kollejida to'garak ochib, shogirdlar tayyorladim. Hatto ularning ikki nafari Osiyo chempioni ham bo'lishdi.

## 1-bosqichdagi ilk she'rim

Birinchi she'rimni talabaligimda 1-bosqichda antifilosofiya fanida yozganman. Dars davomida ustozimiz qani ichlaringda she'r yozadiganlar bormi, deb so'raganlar. Shunda kursdoshim psixolog Zamira Azimova meni ko'rsatgan. "Oq she'r bo'lsa ham qofiya bilan aytsang, imtihondan bahoyingni besh qilib beraman", dedilar ustoz. She'rga qiziqqanim uchun o'sha darsda 20 ta she'r o'qib berdim, Yassaviy, Erkin Vohidov, Alisher Navoiy va Abdulla Oripovdan. Endi o'zing yozgan she'rni aytib ber, dedilar. Shunda kursdoshim Zamiraga qarab:

**Zebo ko'zlaringni ko'rib men,  
Umid bog'lab keldim oldingga.  
Lekin sendan chiqmas negadir nido,  
Faqat ko'zlaringni chaqnaydi ziyo.  
Ilk bor uchrashganda sen Zebo bilan,  
Yayrab kulgandi o'shal lablaring.  
Gar bersada ozor yurak dardlaring,  
Ayt yana bir kulsin o'sha lablaring.**

deb she'rni to'qiganman, hamma qarsak chalgan. Ustoz esa va'dasida turgan.

## Ayolim – Tehron elchisining qizi

Ayolim Tehron elchisining qizi, uning otasi O'zbekistondagi elchixonada ishlar edi. U tug'ilgan vaqtda otasi avtohalokat sababli vafot etgan. Ayolimni qarindoshlari uni Tehronga olib ketishmagan. U O'zbekistondagi bolalar uyida katta bo'ldi va poytaxtdagi Yuridik davlat universitetini tamomlab, respublika harbiy prokuraturasida ishga kirgan. Ilk marta o'sha yerda ishlab yurgan kezlari uchrashganmiz. Hozirda shu ayol 4 nafar o'g'lim bir nafar qizimning onasi va 6 nafar nevaramning sevimli buvisi.

## El kezib - til bildim

Bolaligimdan qozoq tilini bilardim. Universitetda rus guruhda o'qiganim bois rus tilida ham bemalol muloqot qila olaman va grammatik jihatdan ham bu tilda ishlay olaman. Ayolim eronlik bo'lgani uchun fors tilini ham o'rgandim. Samarqandda 12 yil davomida yashagan kezlirim tojiklar orasida tojik tilida ham muloqot qilishni boshladim. Hozirda uyda tojik, fors va rus tilida gaplashamiz.

Vazirlikda ishlagan kezlirim avval Estoniyaga yuborishdi, keyin esa Fransiya. U yerlarda o'sha davlat tillarida, ya'ni ispan va fransuz tilida muloqot qilishni o'rgandim. Rossiyada ham harbiy universitetda 6 oy davomida o'qib kelganman.



## Bugunning talabasi

Oliy ta'lim talabalari haqida gapiradigan bo'lsam, hozirgi talabalar bilan bog'liq salbiy qarashlarim yo'q emas. Ayrim rus guruhida o'qiydigan talabalar hatto rus tilini bilishmaydi. Rus maktabni tamomlagan, qizig'i. Oliygo'zni tamomlab, biror joyda ishlasalar, ularni orqasidan keladigan lan'atlar biz ustozlarga kelishi yomon. Men buni hazm qila olmayman. Filialdagi ayrim o'zbek guruhlariga kirsangiz mazza qilasiz. Fikrlari bor, ularga to'garak ham o'taman.

## Diplomlilarni ko'paytirayapmiz, aqllilarni emas

Xususiy universitetlar ko'paygan. Ular uchun talaba pulini to'lasa bo'ldi, diplomini qo'lga berroradi. Shundan xulosa qilish mumkinki, biz diplomlilarni ko'paytirayapmiz, aqllilarni emas. Songa chopayapmiz, sifatga emas. Bilimlilar oz, diplomlilar ko'p. Men talabalarni hech ham aybdor qilmayman. Birinchi navbatda ota-onalar aybdor. Keyin

maktab ta'limi. Ta'limga chet tili ta'lim tizimini olib kirayapmiz, qani o'zbek tili tizimi? Ularni mentaliteti boshqa, nega biz o'zimiznikini yaratmaymiz? Nima uchun chetdagilarni ta'lim tizimni o'zimizga olib kirishimiz kerak? Finlandiya tizimi nomi bor xolos. Uni hech kim kuzatmayapti, o'rganmayapti. Tizim na o'qituvchini, na o'quvchini o'zgartira oldi. Ta'limda birinchi o'qituvchini o'zgartirish kerak. Shundagina bola ham o'zgaradi

### Fikrsiz maqolalar

Oliy ta'lim o'qituvchilari haqida gapiradigan bo'lsam, ko'chirmachilik juda ham ko'payib ketgan. Juda ko'p maqolalar o'qiyman. 50-70 foiz maqolalar ko'chirmachilik asosida yaratilgan. O'zi mustaqil maqola yozganlari kamchilikni tashkil qiladi. 4-5 betlik maqolaning 2,5 beti boshqa kitoblardan va prezident nutqidan olingan sitata bilan to'ldirilgan. Muallifning fikri 4-5 foiz.

Afsuski, bugungi kunda mustaqil fikrlash yo'qolib ketayapti. Yoshlarga biror narsani yoki yozgan maqolangni gapirib ber, deng, gapirib bera olmaydi. Chunki u maqoladagi fikrlarni har joydan olib yozgan. Agar o'sha maqolani o'zingiz mustaqil yozsangiz, butun umr esingizda qoladi, gapirib bera olasiz. Chunki maqolada sizning fikringiz, g'oyangiz, maqsadingiz mujassam. Hozir esa mustaqil yozadigan faqat jurnalistlardir.

### Notiqlik maktabi kerak bizga

Bizda nutq degan tushuncha ham yo'qolib bormoqda. Notiqlik san'atini har bir oliygohda rivojlantirish lozim. Chunki odamlar chiroyli gaplarni gadosi bo'lib qoldi. Agar notiqlik maktabini rivojlantirmasak, yoshlar oddiy gaplarni ham eplab gapira olmaydigan darajaga kelishadi. Psixolog sifatida ko'p davra suhbatlarida bo'laman. Hamma charchagan, asabiy, negativ fikrlari ko'payib ketgan. Oldingi xotirjam yuzlar yo'q. Bir misol. Bozorga bordim. Bir ayol, yuzlari qoraygan, charchagan qiyofada o'tiribdi. Qo'pol qilib aytganda, yonidagi erkak o'sha ayoldan chiroyli. Meni "uka" deb gapirayapti, yoshini so'rasam, mendan 10-15 yosh kichik. Ayollarimizda yog'ilib turadigan nur turmush tashvishlari sabab yo'qolib bormoqda. O'zbekistondagi 70 foiz oilalar sevgi-muhabbat bilan emas, ko'nikish bilan yashayapti.

Yigitlardan nima maqsadda uylanasan deb so'rang, kirimni yuvishi, ovqatimni qilishi, bolalarimni katta qilishi, uyimni tozalashi uchun deb javob beradi. Javobni qarang. Ularning uylanishdan maqsadlari qo'pol qilib aytganda, cho'ri olish. Niyatni chiroyli qilishni bilmaydilar. Yoshlarni ongini o'zgartirish kerak. Ularni hayot haqidagi tushunchalarini boyitish lozim. Maktabdan boshlash kerak bularni. Bizda esa maktab psixologlari faqat hisobot yopadilar. Erta tug'ruqni olish bo'yicha suhbatlar o'tkazmasligi oqibatida bugun erta tug'ruq soni ortib bormoqda. Psixologlar sinf rahbarchalik bolalarni bilmaydi. Shunchaki jadval to'ldirish ishlari.

### Talabada ishlamayotgan xotira

Psixologlar insonlarni his-tuyg'ulari bilan ishlaydi. Ularni qalban his qiladi. Ularni sirini o'z siriday saqlay olishni bilgan psixolog haqiqiy psixologdir.

Yoshlarimizda his tuyg'ular sevgi bilan qoplanmagan. Bunga sabab kam o'qishlik va

kam bilishlikdir. Psixologiyada shunday xotira bor: Tez qabul qilib, tez yoddan chiqarish; sekin qabul qilib, sekin chiqarish; sekin qabul qilib, tez chiqarish va tez qabul qilib, sekin chiqarish. Bizni talabalarda tez qabul qilib, sekin chiqarish xotirasi ishlamayapti. Ular ma'ruzani 80 minut tinglaydi. Keyin so'rang, javob bera olmaydi. Ularda diqqat yo'q. Hayollari parishon. Bu holat ularda oilada, maktabda buzilib bo'lgan. Diqqatni kim buzgan? Ota-ona buzgan.

Ota-ona bolaning oldida ko'p urishishadi, janjallashadi. Natijada bolaning xayoli buziladi. Hozirgi bolalar yoshlik vaqtdan tezroq pul topsam, deydi.

Yana bir misol. Idishni sindirsa, bolani uramiz, aksincha katta bo'lsang, bundan zo'rlarini olamiz, deyishni o'rniga, uni stressga ko'mamiz. Agar odamzot kuniga 200-250 marta stress olsa, bolaga berilgan bu zarba tufayli u 500 marta stress oladi. Stressni orqasidan tez-tez kasal bo'ladi. Immuniteti tushadi. Ularga rag'batlantirish berishimiz kerak. Ko'proq o'qitishimiz

### Shakllantirilmagan ma'naviyat

18-20 yoshdagi talabani tarbiyalab bo'lmaydi. Ular oilada kerakli tarbiyani olib bo'lgan. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Ota-onasidan uzoqda bo'lgan talaba agar uyida kitob o'qimagan bo'lsa, universitetda aytib, urishib ham qo'lga kitob oldira olmaysiz. Bilimni bersa bo'ladi, lekin ma'naviyat oiladan shakllanmas ekan, buni keyin shakllantirishning aslo iloji yo'q.

Oliy ta'limdagi ma'naviy tadbirlarga talabalarning kirmaslik sababini o'rgansangiz, o'sha o'zini tadbirdan olib qochgan talaba yo uyiga borib uxlaydi, yo telefon o'ynaydi yoki ko'chada vaqtini bekor o'tkazadi. Ma'anaviy tadbirdagi hordiqqlar kerak bizga. Bu stresslarni yengishga, hayot tashvishlari, zerikarli vaziyatlardan chalg'ishga yordam beradi.

Inson ma'naviy hordiq olishni o'rganmas ekan, dam olishni bilmas ekan, o'qish va ishida unum bo'lmaydi. Hamma narsa me'yorida va vaqtda bo'lsin degan inson - ishlashni va dam olishni ham biladi. Muzei va teatrlarga borgan inson ma'ruza tinglagandan ham ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. 80 foiz xotira ko'z xotirasi bilan olinadi. Shuning uchun hamma eshitganlarimizni ko'rish va kuzatishga ham odatlanishimiz kerak.

### Baxt men uchun...

Odamlar baxtni moddiyat bilan o'lchaydilar. Uyi, ishi, mashinasi va farzandlari borligi uchun baxtliman deb o'ylashadi. Aslida baxt orzular ro'yobini his qila bilishda, maqsadlar amalini anglay olishda, to'rt muchamning sog'ligida, hamma ishni sog'lom bo'la turib, o'zi bajara olishida. Ko'zi ojizlar ham baxtliman deydi, nega baxtli san deysangiz, men tirikmanku, deyishadi. Ular uchun baxt tiriklikda. Ularni ko'rgan sog'lom odamlar baxtni aslida nimada ekanligini tez anglab yetadilar. Bu dunyoda harakat qilayotgan har bir inson aslida baxtli



Kuni kecha Olimjon Abdurasulov Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH) miqyosida tashkil etilgan «O'z kasbining fidoyisi» esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

### Kuchli inson – baxtli insonmi?

Lider ayol orqasida erkak turadi, lider erkak orqasida ham ayol turadi. Liderlik birlashsa, ayol va erkaklar o'rtasida o'sish bo'ladi. Ota bolasini yetaklab boqqa, toqqa, muzeyga sayohatga olib borsa, u haqiqiy ota. Ertaga uni farzandi ham shu ishni qiladi. Hozir esa qanday. Otalar yo televizor ko'radi, yo telefon titkilaydi. Bolasini bir kunda bir marta quchoqlamaydi. Yarim soat ular bilan gaplashmaydi. Ayoliga farzandi yonida mehr bera olmaydi. Shuning uchun bolalar mehr nimaligini bilmay katta bo'layapti. Ayolini so'kadi, bola bilan gaplashmaydi. Katta bo'lsa, farzand ham otasining xatosini takrorlaydi. Bolada ayb yo'q. Uning miyasi oq qog'ozga o'xshaydi. U ko'rganlari orqali o'sha oq qog'ozni qoralab boradi. Mehr sotilmaydi. Lekin shu tekin narsani o'z farzandimizga bermayapmiz. Natijasi esa ma'lum. Mehr berguvchi inson boshqa bo'lsa, o'sha tomonga og'ib ketadi. Uyda mehr rishtasi kuchli bo'lsagina, ota-onaning farzand oldidagi hurmati yuksak bo'ladi.

Oila psixologiyasi tushunchasini bilmaydi ota-ona. Erkak ham ayol ham o'z vazifasini bajarmayapti. Erkakning vazifasi pul topish, oilasi, ayolini ta'minlash. Ayolning vazifasi farzand tarbiyasi. Demak, erkak va ayolning kuchli bo'lishi, o'zlarining va farzandlarining baxtli bo'lishlarining asosidir.

Shunday ekan, har birimiz baxtli bo'lishga haqlimiz va bunga o'z kuchimiz bilan erishamiz.



**GAZETANING BUGUNGI QAHRAMONLARI  
NAZAROV ILHOMJON ZAFAR O'G'LI  
HAMDA BAHROMOVA MALIKA BAHROM  
QIZI.**

*davomida bo'lib o'tgan.*

*Sarlavha e'tiboringizni tortgan bo'lsa ajab emas. Oliy ta'limdagi har bir talabaning xayolini band qiluvchi "men bu yerni bitirib, qayerda ishlay olaman?" degan savolga, endilikda TDTU Olmaliq filialini bitirib, ayni kunda o'z ish o'rniga ega bo'lgan, natijalarga erishayotgan sobiq talabalarimizning intervyulari orqali javob topishingiz mumkin. Bu sonimizdan sobiq talabalarimizning oliy ta'limdan keyingi hayoti, talabalikning oltin davri, kecha va buguni haqidagi fikrlari, har bir talabaning o'qish davri va ish jarayonida bilishi kerak bo'lgan jihatlar xususida ham qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.*

Barchamiz guruhning eng aqlli va tirishqoq talabasi bo'lishga harakat qilardik, alohida dunyoqarashga ega katta yoshli kursdoshlarimiz bundan mustasno edi, albatta. O'qish davomida meni ranjitgan holatlar deyarli bo'lmagan, aksincha, maqsadim faqat bilim egallash bo'lgani uchun oliy ta'limda hamma gapirib yuradigan kamchiliklarga ahamiyat qaratmaganman. Bizdan talab qilnadigani - ilmga xohish va o'zaro hurmat, - deydi Ilhomjon.

*Havas qilsa, arzigulik ustozlar*

4 yil davomida juda ko'p ustozlar turli fanlardan dars berishib, o'zlarining bilim va ko'nikmalarini ulashdilar. Lekin ular orasidan sanoqlisiga havas qilardim va vaqti kelib ularga o'xshagan inson, yuqori darajali ilm va salohiyatli o'qituvchi bo'lishni niyat qilardim. Ulardan biri issiqlik va massa almashinuvi fanidan dars bergan Ra'no Toshqodirova. Ustoz ko'p yillik tajribaga ega ilmi ayol. Biroq ularga havas qilishimning asosiy sababi ularning muomala madaniyati edi. Talabalarni shunchaki o'quvchidek emas, o'z o'g'illari kabi ko'radilar. Doim shu xonaga kirib, shu yergacha yetib keldinglarmi, albatta biron nima olib keting, shunchaki kelib ketmang, - deb aytgan gaplari har doim yodimda.

Yana bir havas qilgan ustozim pirometallurgiya jarayonlari nazariyasi va nodir metallar metallurgiyasi fanlaridan dars bergan Nilufar Asqarova. Ustoz yuqori tajribali, o'z sohasining mutaxassisi. Nilufar opa nafaqat dars bergan, guruh rahnarimiz ham edilar. Ular kerak joyda qattiqqo'llik bilan va kerak joyda chiroyli muomala bilan gaplashishni bilardi. Kerak joyda talabalar uchun turib bera oladigan himoyachimiz bo'lgan.

Har taraflama namuna bo'la oladigan kuchli bilm salohiyatiga ega, intizomli, zarracha kibrga berilmagan og'ir, bosiq va mas'uliyatli,

auditoriyada bitta talaba qolgan bo'lsa ham dars o'tishdan chekinmasdan, "ishimni halol qilishim kerak, shuning uchun haq olayapman" deguvchi ustozlarimdan yana biri Olmos aka Boltayev. Bu ustoz odamiylik jihatidan haqiqiy namuna bo'la oladigan inson.

Aslida ustozlarga ta'rif berish biz talabalarga emas. Ular shunday darajadagi insonlarki, ilm ummonida suzuvchi ziyo ahlidir. Umuman olganda oliyoghdagi barcha professor-o'qituvchilar har bir talabaning nafaqat kasbiy kamolotida, balki hayot so'qmoqlarida ham nur beruvchi misoli shamdir.

*O'zlikni anglash yo'lida*

TDTU OFdagi o'tkazgan yillarim menga o'zligimni anglashga va shaxs sifatida rivojlanishimga juda katta yordam nergan. Birinchi kursga kelganimda hali katta hayotning qiyinchiliklarini ko'rmagan yosh bola edim. O'tgan 4 yil davomida men har xil vaziyatlar, qiyinchiliklarga duch keldim. Dunyoqarashim tubdan o'zgardi, oq bilan qorani, yaxshi bilan yomonni ajratishni o'rgandim. Kontrakt-shartnoma asosida o'qishga kirganim bois uydagilarga og'irligim tushmasligi uchun kunduzi restoranda ishlab, kechga o'qirdim. Ijarada yashash, yeb-ichish, kiyinish va boshqa xarajatlardan tashqari shartnoma pulini ham yig'ardim. Talabalik hayoti insonni irodasini metin kabi mustahkam, sabrli va kuchli inson bo'lishga o'rgatadi.

Yuqori kursga o'tganimda filialda ham ishladim. O'sha vaqtda yana bir inson bilan yuzlashdimki, bu inson fakultetimizning o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari Nurzod aka Nosirov. Bu ustoz meni hozirgi kunga qadar qo'llab-quvvatlab keladilar. Fakultetda ishlagan vaqtlarim bu joyni ikkinchi uyim, ustozlarni esa oilam deb qabul qildim va bu kunlarni hech qachon unutmasam kerak.

*Oliy ta'limdan keying hayot*

Fakultetda ishlab yurgan kunlarimning birida Begzod aka Habibullayev Yoshlar ishlari agentligida ishga qabul bo'lyotganini, borib rezyume topshirib ko'rishimni maslahat berdilar. Ertasiga borib hujjatlarimni topshirdim. Oradan bir muddat vaqt o'tgach, suhbatga chaqirishdi va suhbatdan o'tib, Yoshlar ishlari agentligida sinov muddati bilan ishlay boshladim.

Yangi ish, yangi hamkasblar - hayot yo'limning yangi bosqichi ochildi.

Yoshlar ishlari agentligida ishlash odamdan katta mas'uliyat va intizom talab etadi. Dastlab yangi ishda ishlash bir muncha qiyin bo'ldi, lekin keyin moslashdim va hozirgi kunga qadar ishlab kelmoqdaman.

Agar vaqti kelib menga o'z soham bo'yicha ish yoki bitirgan oliyoghimda o'qishni davom ettirish imkoniyati berilsa, hech ikkilanmay oliyoghdan o'qishni davom ettirib, shu joyda ishlashni tanlar edim. Chunki orzu qilganim, yuqorida sanab o'tgan insonlar bilan bir qatorda turish va ular bilan birga ishlash menga zavq beradi.

*Egallagan bilimlarimning ishingga aloqasi yo'q, biroq...*

Yoshlar ishlari agentligida hamma ham ishlab keta olmaydi, degan shaxsiy fikrga egaman. Oliyoghdan o'rgangan bilimlarim ushbu sohada unchalik foyda bermadi, chunki bu ikkalasi bir-biridan tubdan farq qiladiga yo'nalishlar. Shunday bo'lsada, yoshlar bilan ishlay boshlagan kunimdan yangi fikr va ko'nikmalarga ega bo'la boshladim. Yoshlar bilan ishlay, ularni to'g'ri yo'lga boshlash juda ham nozik masala. Chunki yoshlarimiz bizni, vatanimizni kelajagini belgilab beruvchi insonlardir. Ularni tarbiyasiga hissa qo'shish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, sport bilan shug'ullanib sog'lom avlod sifatida shakllanishi bizning asosiy vazifamizdir.

Hozirgi yoshlar hayotda o'z o'rnini topishga qiynalishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi qo'shtirnoq ichidagi ommaviy madaniyat, chet elning yot g'oya va mafkuralari yoshlar ongiga juda katta ta'sir o'tkazmoqda. Bizdan talab qilnadigani esa ularni to'g'ri yo'lga boshlash.

Yoshlar orasida iqtidorli yoshlar mavjud. Agar ularni aniqlab o'z yo'nalishiga yo'naltirmasak, ular ham shunchaki oddiy bir sohada oddiy bir xodim sifatida qolib ketishlari mumkin. Agar ularni iqtidorlarini yuzaga olib chiqsak, marra bizniki. Yetuk kadr, o'z sohasining ustasi, o'zi qiziqqan yo'nalishda ketgan yosh o'z ishidan zavq oladi va hech qanday norozilik kayfiyati va muammolari bo'lmaydi.

Yoshlar yetakchisi yoshlarga namuna bo'lishi kerak. Har taraflama yurish-turishi, kiyinishi, muomala madaniyati va xatti-harakatlari bilan. Chunki hech bir yetakchi o'zi amal qilmagan ishlarni yoshlardan amal qilishlarini talab qilishga haqli emas.

*Kelajak o'qiganniki...*

Oliy ma'lumotli bo'lish, bir so'z bilan aytganda bugungi kunda davr talabi. Men har bir yoshga o'qi, o'rgan, kelajak o'qiganniki degan maslahat va takliflarni juda ko'p beraman. Biroq ba'zi yoshlar ertaroq ishlash va pul topishga qiziqib ketishmoqda. Bir qarashda ularning fikri va yo'li ham to'g'ri, oilasiga ertaroq foydasi tegsa, biroq ularning eng katta xatosi ham shunda. Vaqt borida o'qish yoki biror kasbni mutaxassisi bo'lish kerak. Aks holda butun umrlari davomida qiynalishadi va buni tushunib yetganlarida kech bo'lishi mumkin.



**Nazarov Ilhomjon  
Zafar o'g'li**

2019-yil TDTU OFning metallurgiya yo'nalishi kechki ta'lim talabasi bo'lish baxtiga erishgan Ilhomjon uchun o'qishning ilk kunlari hayajonli, taassurotlarga boy va yuqori atmoferada o'tadi. U 1k\_19 metallurgiya guruhidagi 18 nafar talabaning orasida eng kichigi bo'lib, kursdoshlari bilan bir oila misoli oliyoghnini tamomladi. Matematika, kimyo va chet tili faniga qiziqishi va o'qishga kirishdan avvalgi qo'shimcha darslarga borgani Ilhomjonga talabalik davrida o'qish jarayonlarini qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishiga yordam berdi.

*- O'qishning eng zavqli onlari 1-bosqich*

*davomi 5- sahifada*

# Kechagi bitiruvchimiz bugun qayerda?

## NavDTI OFdan TDTU OFga

Talabaligimning oltin davri TDTU Olmaliq filialining ilk tashkil etilishi hamda butun dunyoni larzaga solgan COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liqligi bilan juda esda qolarli kechgan, deya o'z hikoyasini boshlaydi qahramonimiz. 2017-2021 yillar Konchilik ishi fakultetining 7-17KI guruhida tahsil olganman. Hozirda 2-MBFda flotatorman hamda dispetcher vazifasidaman. Shu bilan birga ishlab chiqarish narrative yetakchi muhandisi lavozimida zahiradagi xodim sifatida ish o'rganayapman.

Aslida talabalikning har bir davri o'zgacha. Biz uchun esda qolarli davr 1-bosqichda o'qib yurgan vaqtimizdan boshlangan. 2017-yil NavDTI OFga hujjat topshirib, o'qishga qabul qilindim, mazkur oliygohga oz vaqt o'qiganmiz ( tarixga muhrlangan kun bo'lsa kerak universitet uchun ). Navoiy davlat konchilik institutining Olmaliq kon-metallurgiya fakulteti o'rnida Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti tashkil qilinib, Konchilik ishi va metallurgiya hamda Energetika va mashinasozlik fakultetlari faoliyatini boshladi. Biz kabi NavDTI OFning yuzlab talabalari shu kundan TDTU OFda o'qishni davom ettirdik. Men esa Konchilik ishida o'z kursdoshlarim bilan talabalik oltin davrimning 4 yilini ilmlarga burkanib o'tkazdim. To'g'ri, qiyinchiliklar ham bo'lgan, yangi tashkil etilgan filialda sharoitlar maqtanarli darajada emasdi, xonalar sovuq, ham qish fasli edi. Bundan tashqari 1-semestri tugatgan vaqtimda farzandli ham bo'lganman. Chaqaloq bilan darslarni o'zlashtirish, sovuq xonalarda leksiyalarni tinglash, semestr yakunidagi vazifalarni bajarish, eshitilganda oson bo'lsa-da, yaxshigina mehnat, harakat va sabrni talab qilgan mendan. Lekin shunga qaramay, bizlar uchun sharoit emas, oliy ta'limda egallanadigan bilimlar muhim bo'lgan. Birinchi bitiruvchi sifatida qasamyodda filialning 1-kurslarga kalit topshirish uchun aynan bizning guruh tanlangani ham bizga eng chiroyli damlarni baxsh etgan. Aynan mana shunday esda qolarli lahzalri bilan TDTU OFdagi davrimni eng zavqli kechgan deya ayta olaman.



## Olingan bilimning amaldagi natijasi

Muhammadjahongir Ahmedov, Izzatilla Ibragimov va Nurzod Nosirov ustozlardan olgan bilimlarimni bugungu ishimda juda kerakli ekanligiga guvoh bo'layapman. Xususan, Muhammadjahongir Axmedov bizga geologiya fanidan dars bergan, hozirgi ish jarayonimda bildimki, bu fan eng asosiy fan bo'lgan. Shu fanning o'zida 18 ta amaliy ishimiz bo'lib, har bir amaliy ishni mavzusidan tortib, maqsadigacha so'rardi va amaliy ishni tushunib anglashimizni xohlardi. Nurzod Nosirov esa boyitish yo'nalishining eng yaxshi ustozlaridan biri bo'lib, asosan amaliyotdan kirganlar. Diplom rahbarim sifatida ham ko'p amaliy bilimlar, formulalar, reagentlar rejimini to'g'ri taqsimlashda va uni formulalar bilan ishlatish yo'llari bo'yicha o'z bilimlarini bergan va hozir aynan shu reagentlar rejimini yaxshi o'zlashtirganim ishimdagi yutug'imdir. Izzatilla Ibragimov nazariy bilimlarni yaxshi yetkazib berardilar. Ustoz har bir mavzuni amaliyot bilan bog'lab, anglab yetishimiz, ko'z oldimizga keltirishimizda juda katta mahoratga egaligi bilan boshqa ustozlardan farqlanadi. Hozirga qadar ustozdan olgan bilimlarim tufayli fabrikamizda o'tkazib kelinadigan bilimlar sinovi va "Zakovat" larda yaxshi natijalarga ega bo'lib kelmoqdaman.

## Ishchiga ham ilm kerak

Ishga kirishda hammada qiyinchilik bo'ladi. Chunki yiliga bizga o'xshagan kadrlardan yuzlab nafari o'qishni tamomlab, o'ziga ish izlaydi. Oliy ta'limda o'qidi, degani, ish tayyor, sizni kutayapti, degani emas. Ishga sinov asosida qabul qilinasiz va albatta, oliy ta'limdagi 4 yilni bilim egallashga sarf qilgan bo'lsangiz, sinovlardan oson o'tasiz. Men ham sinov asosida, 6 ta savoldan iborat yozma tarzdagi imtihondan o'tib, savollarga o'rganigan bilimlarim asosida javob yozganman va 2-mis boyitish fabrikasiga flotator bo'lib ishga qabul qilinganman.

## Muvaffaqiyatlarim

Hozirda 2 yillik ish tajribasiga ega III darajali flotatorman. 2022-yil fabrika doirasida bo'lib o'tgan flotatorlarning bilim va amaliyot sinovida qatnashdim. Nazariy bilimdan 1-o'rinni oldim, ammo amaliyotim hali yo'qligi hisobiga o'rin berishmagan o'sha vaqtda. Bu yil yana ishtirok etib, tajribali 12-14 yillik tajribaga ega flotatorlar orasida 2-o'ringa munosib deb topildim. Shuningdek, kombinat doirasidagi turli tanlovlarda ishtirok etib kelaman.

Talabaga amaliyot kerakmi?

Amaliyotni pullik qilish kerak

Talabalar uchun amaliyot kerak, albatta. Qancha amaliyot ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Talaba har bir eshitgan texnikalarini amaldagi ish mexanizmini ko'rib, tushunib, anglasa, tajriba ortadi, bilimlar mustahkamlanadi. Lekin korxonaga shunchaki kelib ketish kerak emas, yutqizganda, faqat talaba yutqazadi. Shuning uchun amaliyot davrida kuniga bitta bo'lsa ham nimadur o'rganish lozim. Bu o'zlariga vaqti kelib asqotadigan vaziyatlardan biri hisoblanadi.

Amaliyotni pullik bo'lishi tarafdoriman. Sababi o'tgan yili MISiS Olmaliq filiali talabalari amaliyotda 7:00dan 16:00 gacha ishlab, maosh olishgan. Ham o'rganishgan, ham pul ishlashgan, natija samarali bo'lgan. Anchagina ma'lumotga ega bo'lishgan. TDTU Olmaliq filiali talabalari soat 11:00 gacha kelib, ketishadi. Bu vaqt kam. To'g'ri, xohlagan talaba shu vaqtda ham ancha narsa o'rgansa bo'ladi. Lekin vaqt va pul ko'proq o'rganishning birinchi omillaridir. Afsuski, o'qish davrimning eng qizg'in vaqti karantinga to'g'ri kelgani bois 3-bosqichda biz amaliyotga chiqolmaganmiz.

O'qishni davom ettirish niyatim bor...

Keyinchalik magistraturada o'qish niyatim bor. 2021-yil TDTU Olmaliq filialiga magistraturaga topshirdim. Lekin kira olmadim. 10 tagina grand olishdi. Hozir esa sertifikat so'rayapti. 3/1 grafikda ishlaganim bois, til o'rganishga umuman vaqt topa olmayapman. Lekin baribir bir kuni magistraturani tamomlab, boyitish fanidan dars berish niyatim bor, ungacha tajriba ham ortirib olaman.

Fikrlarni xulosa qilmaymiz, aksincha talabalarga maqolani diqqat bilan o'qib, kerakli xulosani o'zlarini qilishlariga imkon beramiz.

